



Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
ilmiy xodimi

O'ZBEKISTONDA OILANI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY TARTIBLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda oilani muhofaza qilishning huquqiy tartiblari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilik hujjatlariga asoslangan holda tahlil qilingan. Shuningdek, davlatimiz tomonidan oila institutini muhofaza qilish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z yuritilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые процедуры защиты семьи в Узбекистане на основе Конституции и законодательства Республики Узбекистан. Также говорится о реформах, реализуемых нашим государством в сфере защиты и развития института семьи.

Annotation. This article analyzes the legal procedures for family protection in Uzbekistan based on the Constitution and legislation of the Republic of Uzbekistan. Reforms implemented by our state in the area of protection and development of the institution of the family are also discussed.

Tayanch so'zlar: oila, oila huquqi, oila instituti, oilani muhofaza qilish, nikoh, an'anaviy o'zbek oilasi.

Ключевые слова: семья, семейное право, институт семьи, защита семьи, брак, традиционная узбекская семья.

Keywords: family, family law, family institution, family protection, marriage, traditional uzбек family.

Kirish. O‘zbekistonda oilani muhofaza qilish borasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya hisoblanadi. Boshqa davlatlar Konstitutsiyalaridan farqli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida oilaga bag‘ishlangan bob mavjud. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendum natijalariga ko‘ra yangi tahrirda qabul qilingan Bosh qomusimizda oila instituti va uni muhofaza qilish borasida bir qator yangi normalar bilan boyitildi. Xususan, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi 1-qismida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”¹, deb belgilab qo‘yilgan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda esa oilani muhofaza qilish oldingidek huquq sifatida emas, balki davlat va jamiyat tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan majburiyat sifatida e‘tirof etildi. Unga ko‘ra, “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir”².

Maqsad va uni asoslash. Yangilangan Konstitutsiyamizdagi mazkur normaning kiritilishi oilaning davlat va jamiyat tomonidan doimo himoya qilinishini anglatadi. Shuningdek, nikoh munosabatlariga oid normaga ham o‘zgartirish kiritildi. Unga ko‘ra: “Nikoh O‘zbekiston xalqining an‘anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi”³. Oilaning dastlabki tamal toshlari qo‘yiladigan jarayon, ya‘ni nikoh qurish jarayonida ilk bora qonunchiligimizga xalqimizning oila qurish borasidagi qadriyatlari huquqiy norma sifatida mustahkamlandi. Bunday normaning kiritilishi bugungi kunda oilalarning mustahkamligiga, oilaning asosiy vazifasini, ya‘ni farzand dunyoga keltirish va tarbiyalashdek mas‘uliyatli, mashaqqatli jarayonga turli tahdidlarning kuchayib borayotganligi hamda bunday tahdidlarga qarshi turish nafaqat davlatning, balki jamiyatning ham muqaddas burchi ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasining 3-qismi yangi norma bilan to‘ldirildi. Unga ko‘ra: “Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi”⁴. Oilani muhofaza qilish, uning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish davlatning birinchi navbatdagi ustuvor vazifalaridan biri ekanligining e‘tirof etilishini mazkur normada ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda oilani muhofaza qilish borasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya hisoblanadi. Boshqa davlatlar Konstitutsiyalaridan farqli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida oilaga bag‘ishlangan bob mavjud.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr) // <https://lex.uz/docs/-20596>

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel) // <https://lex.uz/docs/-6445145>

³ O‘sha manba

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel) <https://lex.uz/docs/-6445145>

Bugungi kunga qadar mamlakatimizda oila institutini har tomonlama rivojlantirish borasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Konstitutsiyamizda belgilanganidek oilani huquqiy asoslarini rivojlantirish yoʻnalishida 204 ta normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinganini keltirishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “Hammaga maʼlum, yoshlar bilan ishlash, oila va ayollar masalasi har doim biz uchun muhim vazifa hisoblangan va bundan keyin ham shunday boʻlib qoladi”⁵ degan fikrlari oilaning muhtakamligini taʼminlash va uni muhofaza qilinishi, huquqlari himoya qilinishi lozim boʻlgan oila vakillari, xususan, ayollar va yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini har doim davlat tomonidan himoya qilinishini anglatadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va uning yechimi. Bugungi kunga qadar mamlakatimizda oila institutini har tomonlama rivojlantirish borasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Konstitutsiyamizda belgilanganidek, oilaning huquqiy asoslarini rivojlantirish yoʻnalishida 204 ta normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinganini yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin. Bularning 1 tasi Kodeks, yaʼni oila huquqining asosiy manbalaridan biri boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 7 ta Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 20 ta Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29 ta Prezident Qarori, 1 ta Prezident Farmoyishi, 96 ta Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 35 ta vazirlik va idoralarning qoʻshma qarorlari, 51 ta vazirlik va idoralarning buyruqlari hamda u bilan birga qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tashkil qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qoʻyilganidek, oilalarni ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Quyida mamlakatimizda oilalarni ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida toʻxtalib oʻtamiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining maʼlumotlariga koʻra, mamlakatimizda 9 million 700 mingdan ortiq oilalar mavjud boʻlsa, shularning 11,5 foizi kam taʼminlangan oilalar hisoblanadi⁶. Davlatimiz tomonidan oilalarni kambagʻallikdan chiqarish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kam taʼminlangan oilalarning “Temir daftar”ga kiritib, ularning daromadlarini oshirish borasida subsidiyalar ajratilmoqda. Shuningdek, kam taʼminlangan oilalarga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi “Kam taʼminlangan oilalarga moddiy yordam koʻrsatish hamda kambagʻallik bilan kurashish koʻlamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6277-sonli Farmoniga binoan kam taʼminlangan oilalarga farzandi 14 yoshga

⁵ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017, – B. 583.

⁶ Oʻzbekiston aholisi statistik koʻrsatkichlari // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

to'lguncha to'lanadigan nafaqa puli 18 yoshgacha, to'lov muddati 6 oydan 12 oyga, nafaqaning miqdori oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib belgilash tartibi joriy qilindi.

Farmon qabul qilinganidan keyin bolali oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar qamrovi 2017-yilga nisbatan 5 baravarga oshib, 2022-yilda davlat budjetidan 11 trln so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Xususan, hozirda bolalar nafaqasi oluvchilar 2 mln 177 ming oilani yoki oilalar umumiy sonining 23,1 foizini tashkil etadi (18 yoshgacha bo'lgan 5 mln 5 ming bola yoki ularning umumiy sonining 42,7 foizi). Har bir oila uchun o'rtacha yillik hisobda to'lovlar miqdori 5 mln. 550 ming so'm (491 dollar), har bir bola uchun esa 2 mln. 414 ming so'm (214 dollar) ni tashkil etadi. Nafaqa oladigan oilalardagi bolalarning o'rtacha soni 2–3 bola⁷.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya agentligi tashkil etildi va "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarni aniqlash vakolati agentligining "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining ijtimoiy xodimlariga berildi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, inson kapitaliga kiritilayotgan sarmoya o'z sarmoyasini bermasdan qolmaydi. Davlatimiz tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida aynan shu g'oya yotganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-sonli Qonuniga binoan qonunchiligimizga yosh oila tushunchasi kiritildi. Qonunning 3-moddasiga ko'ra: "yosh oila – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol)"⁸, tushuniladi.

Yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga dastlab "Yoshlar uylari" keyinchalik yangi uy xarid qilish uchun subsidiyalar ajratish tartibi belgilandi. Bunday tartib "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga kiritilgan oilalar uchun ham tatbiq qilib kelinmoqda.

Kam ta'minlangan oilalarning farzandlari ta'lim olishi uchun o'qishga kirishda imtiyozlar berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli

***O'zbekiston
Respublikasi
Prezidenti huzurida
Ijtimoiy himoya
agentligi tashkil
etildi va "Ijtimoiy
himoya yagona
reyestri" axborot
tizimi orqali kam
ta'minlangan
oilalarni
aniqlash vakolati
agentligining
"Inson" ijtimoiy
xizmatlar
markazlarining
ijtimoiy
xodimlariga
berildi.***

⁷ Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan yordam haqida ma'lumot <https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/post-1028>

⁸ "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun // <https://lex.uz/docs/-3026246>

Oldingi konstitutsiyamizga ko'ra onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinish tartibi belgilangan edi. Biroq otalikni muhofaza qilish normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanmagan edi.

qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoniga binoan ehtiyojmand oilalarning farzandlari xotin-qizlarga har yili umumiy qabul kvotasining 4 foizi miqdorida grant ajratilgan bo'lib, xotin-qizlarga tavsiyanomalar Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan berib kelinmoqda. Qo'mita tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunga qadar 7 mingga yaqin xotin-qizlar davlat granti asosida oliy ta'lim o'qishga qabul qilish uchun tavsiyanomalar berilgan⁹.

Sog'lom avlodni dunyoga keltirish oila oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish to'g'risida"gi PF-4513-sonli Farmoniga binoan ona sog'lom bo'lsa, farzand ham sog'lom bo'ladi degan tamoyil asosida onalikni himoya qilish maqsadida mamlakatimizda homiladorlik davrida bo'lajak onalarni bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish, farzandi tug'ilganidan keyin ham ularning salomatligini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda tibbiy tekshiruvlar va xizmatlar amalga oshiriladi. Ularga ko'rsatilayotgan perinatal xizmatlarning sifatini oshirish masalasi ham belgilab berildi.

Oldingi Konstitutsiyamizda onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi tartibi belgilangan edi. Biroq otalikni muhofaza qilish normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanmagan edi. Xalqimiz tomonidan kelib tushgan ko'plab takliflarni inobatga olgan holda oilaning to'kis bo'lishi hamda farzand tarbiyasida ota-onaning birdek ishtirok etishini ta'minlash maqsadida otalikni davlat tomonidan muhofaza qilish tamoyili Konstitutsiyamizda o'z aksini topdi va quyidagi tartibda bayon qilindi: "Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi"¹⁰.

2023-yilda O'zbekistonda 139741 ta nikoh qayd qilingan bo'lsa shunda 49198 ta nikoh bekor qilingan¹¹. Bu esa, o'z navbatida, qariyb 35 foiz nikoh ya'ni tuzilgan har 3 nikohning 1 tasi bekor qilingan degan ma'noni anglatadi. Qayd qilingan nikohlarning bekor bo'lishi orqali nafaqat er yoki xotinning balki farzandlarning ham huquqlarini himoya qilish, ularning ruhiy holati haqida qayg'urish lozimligini

⁹ Xotin-qizlarga OTM kirish uchun davlat granti ajratish uchun tavsiyanomalar // <https://wcu.uz/oz/lists/view/526>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish to'g'risida"gi PF-4513-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6445145>

¹¹ O'zbekistonda 2023-yilda qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni // <https://siat.stat.uz/reports-filed/230/line-data>

ham unutmasligimiz kerak. Ajralish holati qayd qilinganidan keyin aksariyat holatlarda er yoki xotinning o'zi tugul, oilasi ham bir-biriga nisbatan dushmanga aylanib qolayotganligi hech kimga sir emas. Sud tomonidan farzandlarning onada qoldirilishi haqida hal qiluv qaror chiqarilib, asosan, bolalarning dam olish kunlarida (ya'ni ta'lim olishiga halaqit qilmasligi uchun) otalari yoki ular vakolat bergan shaxslar bilan ko'rishishi belgilangan bo'lishiga qaramasdan ba'zi ayollar tomonidan farzandlarini otalariga ko'rsatmaslik orqali ularni jazolash yoki o'ch olish istagi borligini ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizda ota-onaning farzand tarbiyasida birdek ishtirok etishi kerakligi belgilanganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu konstitutsiya normalariga xilofligi uchun huquqiy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi holat sifatida baholanishi lozim bo'ladi. Qonunchligimizda esa bunday huquqbuzarlik uchun jazo qo'llanilishi uchun norma, ya'ni farzandni ota yoki onasi bilan ko'rishisha to'sqinlik qilish uchun jazo chorasi belgilanmaganligi sababli farzandlarning va ota(ona)larning huquqlari poymol bo'lmoqda. Biroq ushbu jarayonda ko'proq aziyat chekayotgan tomon bolalar ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ularning tarbiyasi va kamoloti haqida qayg'urish nafaqat ota-onaning, balki ham davlatning ham oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Konstitutsiyamizning 78-moddasida belgilanganidek: "Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir"¹². Bosh Qomusimizga kiritilgan ushbu norma davlat tomonidan bolalarning huquqlarini himoya qilishni, oilada va boshqa ijtimoiy munosbatlar jarayonida ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilinishini anglatadi.

Bugungi kunda Oilaviy zo'ravonlikka ko'proq fuqarolarning eng zaif toifalari duch kelmoqdalar: ayollar, bolalar, qariyalar va nogironlar. Ularning huquqlarini himoya qilish esa har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni inobatga olib, 2023-yil 11-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-sonli Qonuniga binoan qonunchiligimizga oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun javobgarlik kiritildi. Unga ko'ra, xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir

Konstitutsiyamizning 78-moddasida belgilanganidek: "Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir"

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>

***O'zbekiston
yoshlar mamlakati
ekanligini inobatga
oladigan bo'lsak,
ularning huquqlari
va qonuniy
manfaatlarini
himoya qilinishini
Konstitutsiyada
aks ettirmaslik
O'zbekiston
aholisining qariyb
30 foizini tashkil
qiluvchi qatlamni
nazarda chetda
qoldirish bo'lgan
bo'lar edi.***

ro'zg'orda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega shaxsga nisbatan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish; mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, mazkur harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa, BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha jarima yoki 160 soatdan 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi¹³.

O'zbekiston yoshlar mamlakati ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini Konstitutsiyada aks ettirmaslik O'zbekiston aholisining qariyb 30 foizini tashkil qiluvchi qatlamni nazarda chetda qoldirish bo'lgan bo'lar edi. Konstitutsiyamizning 79-moddasida yoshlarga oid yangi norma kiritildi. Unga ko'ra: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi"¹⁴.

Bugungi kunda yoshlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida 106 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularning 9 tasi Qonun, 10 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 62 tasi esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6017-son Farmoni bilan tashkil etilgan Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechim topish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiruvchi davlat tashkiloti hisoblanadi. Agentlik tomonidan yoshlarning zamonaviy kasb-hunarni egallashlari, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borasida, ta'lim olishlari, mehnat qilishlari hamda uyushmagan yoshlar bilan tizimli ishlash

¹³ O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/4494709>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>

bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. "Yosh kitobxon", "Kitobxon oila", "Munozara" tanlovlari, "Besh tashabbus olimpiadalari", "Ibrat farzandlari" va "Bilim uchun 100 million" loyihalari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga binoan ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi.

Oila Kodeksining 99-moddasiga ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdori belgilab berilgan. Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining

bir bola uchun — to'rt dan bir qismi;

ikki bola uchun — uchdan bir qismi;

uch va undan ortiq bola uchun — yarmisi miqdorida undiriladi.

Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak. (*Bugugi paytda bu miqdor 1 050 000 so'm uning 26,5 % 278 250 so'mdan kam bo'lmasligi lozim.*)

Aliment bola voyaga yetgunga qadar, ya'ni 18 yoshgacha to'lanadi. Agar bolaning voyaga yetmasdan turib to'liq muomala layoqatiga ega ekanligi (mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi) sud qarori bilan tasdiqlansa yoki ayolning boshqa nikohga o'tishi munosabati bilan bolaning nasabi o'zgartirilsa (bunda bola yangi oilasidagilar tarafidan farzandlikka olingan hisoblanadi), aliment to'lash harakatlari tugatilishi mumkin.

Aliment to'lovchi sobiq turmush o'rtog'ining boshqaga qonuniy nikohni rasmiylashtirganligi munosabati bilan alimentni tugatish talabi bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Agar sud tomonidan rad javobi berilgan taqdirda aliment to'lovchining boshqa farzandlarining kam ta'minlanib qolayotganligini asos qilib aliment miqdorini kamaytirish bo'yicha da'vo arizasi kiritishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga binoan: "Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar".

***O'zbekiston
Respublikasi
Konstitutsiyasining
77-moddasiga
binoan ota-onalar
o'z farzandlarini
voyaga yetguniga
qadar boqishi,
ularning
tarbiyasi, ta'lim
olishi, sog'lom,
to'laqonli va har
tomonlama kamol
topishi xususida
g'amxo'rlik
qilishga
majburlar.***

***Ota-ona, aliment
undirish haqidagi
talabni o'z
bolalarining biriga
yoki bir nechtasiga
nisbatan
qo'yganligidan
qat'i nazar,
aliment miqdorini
belgilashda sud
voyaga yetgan,
mehnatga layoqatli
bolalarning
barchasini hisobga
oladi.***

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 109-moddasida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart ekanligi hamda Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmasligi belgilangan.

Agar voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovtalasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-ona, aliment undirish haqidagi talabni o'z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo'yganligidan qat'i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga oladi.

Bunda bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi kerak (*Bugugi paytda bu miqdor 1 050 000 so'm uning 11,75 % 123 375 so'mdan kam bo'lmasligi lozim*).

Shu bilan bir qatorda farzandlar ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko'ra qilinadigan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishlari shart.

Farzandlar tomonidan qo'shimcha xarajatlar ixtiyoriy ravishda qoplanmasa, talab qilinayotgan summa sud tartibida undirilishi mumkin.

Shuni unutmash kerakki barcha ota-onalar ham o'z farzandlaridan aliment undirish huquqiga ega bo'lavermaydi. Ota-onalar mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj bo'lgan hollardagina bunday huquqdan foydalanishi mumkin.

Quyidagi shaxslar mehnatga layoqatsiz hisoblanadi:

- 55 yoshga yetgan ayollar;
- 60 yoshga yetgan erkaklar;
- nogironlar.

Odatda, ovqatlanish, kommunal xizmatlar to'lovi, dori-darmonlar olish uchun daromadlari yetmaydigan shaxslar ehtiyojmand, ya'ni yordamga muhtoj deb tan olinadi.

Agar sud ota-onaning ota-onalik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovtaganligini aniqlasa, bolalarni mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin. *Misol uchun, ota-ona sudning alimentlar bo'yicha qarorini ijro etmagan bo'lsa.*

Quyidagi holatlarda sud tartibida undiriluvchi alimentlar to'lovi to'xtatilishi mumkin:

- da'vogarning mehnat qobiliyati tiklanganida;
- aliment oluvchi yordamga boshqa muhtoj bo'lmaganida;
- tomonlarning birontasi o'limidan keyin.

Qonunchiligimizda voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z majburiyatini bajarmaganligi uchun qanday javobgarlik mavjud?

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 47⁵-moddasiga ko'ra:

Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik - o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etishga yoxud BHMning yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 123-moddasiga binoan:

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar shaxs aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni to'liq to'lagan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Oldingi bobda ta'kidlanganidek, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ya'ni negizidir. Oila doimo davlat muhofazasida ekanligida Konstitutsiyamizda va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ham o'z aksini topgan. Xususan, Oila kodeksining 1-moddasida O'zbekistonda qonunchilik oila quyidagi oilaviy qadriyatlar asosida qurilishini va davlat tomonidan himoya qilinishini e'tirof etadi. Xususan:

- oilani mustahkamlash;
- oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat;
- ishonch va hurmat;
- hamjihatlik;

bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurish;

biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik;

- oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishi;
- oilaviy huquqlarning himoya qilinishini ta'minlash¹⁵.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasida oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligiga asoslanadi. Bunda:

- erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi;

Oldingi bobda ta'kidlanganidek oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ya'ni negizidir. Oila doimo davlat muhofazasida ekanligida konstitutsiyamizda va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ham o'z aksini topgan.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi <https://lex.uz/docs/-104720>

er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi;
ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi;
oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti
haqida g‘amxo‘rlik qilish;

voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a‘zolarining huquq
va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga
oshiriladi.

Shuni alohida e‘tirof etish kerakki, Oila kodeksining 8-moddasiga
binoan agar qonunchilikda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid
tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining
qonunchiligi tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf-odat va an‘analar
qo‘llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda oila, uning mustahkamligini asrash,
globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarni yo‘q qilishga nisbatan
bo‘layotgan tahdidlardan oilani milliy qadriyatlar va an‘analar asosida
himoya qilish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. –120 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi // <https://lex.uz/docs/-104720>
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017, – B. 583.
4. O‘zbekiston aholisi statistik ko‘rsatkichlari // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
5. Kam ta‘minlangan oilalarga ko‘rsatiladigan yordam haqida ma‘lumot // <https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/post-1028>
6. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun // <https://lex.uz/docs/-3026246>
7. Xotin-qizlarga OTM kirish uchun davlat granti ajratish uchun tavsiyanomalar // <https://wcu.uz/oz/lists/view/526>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi “Reproduktiv yoshdagi ayollar; homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-4513-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6445145>
9. O‘zbekistonda 2023-yilda qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni // <https://siat.stat.uz/reports-filed/230/line-data>
10. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/4494709>